

O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI KOMMUNIKATIV MULOQOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Olimov Temir Xasanovich

Osiyo xalqaro universiteti professori, pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Axadova Sabina Qo'shmurod qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti.

Annotatsiya: *O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqotning ahamiyati va uni samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilinadi. Pedagogik jarayonda muloqotning ijobiy muhit yaratish, o'quvchilarning faolligini oshirish va ta'lim sifati yaxshilanishidagi roli ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar va interaktiv usullarning qo'llanishi orqali muloqot samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значимость и пути повышения эффективности коммуникативного взаимодействия между учителем и учеником. Подчеркивается роль общения в создании позитивной образовательной среды, повышении активности учащихся и улучшении качества обучения. Также представлены рекомендации по использованию современных коммуникационных технологий и интерактивных методов.*

Abstract: *This article discusses the importance and ways to enhance the effectiveness of communicative interaction between teachers and students. It highlights the role of communication in creating a positive educational environment, increasing student engagement, and improving the quality of education. Recommendations for using modern communication technologies and interactive methods to enhance communication efficiency are also provided.*

Kalit so'zlar: *Kommunikativ muloqot, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik jarayon, interaktiv usullar, ta'lim sifati, axborot texnologiyalari.*

Ключевые слова: *Коммуникативное общение, учитель, ученик, педагогический процесс, интерактивные методы, качество образования, информационные технологии.*

Keywords: *Communicative interaction, teacher, student, pedagogical process, interactive methods, quality of education, information technologies.*

Insoniyat tarixida ta'lim-tarbiya eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib kelgan. Har bir davr o'zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlariga mos ravishda ta'lim tizimini takomillashtirishni, ayniqsa, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqishni talab qilgan.

Bugungi globallashtiruv jarayonida bilim olish faqat tayyor ma'lumotni o'zlashtirish bilan emas, balki o'z fikrini ifoda eta olish, tanqidiy fikrlash muloqotga kirishish kabi

20-Yanvar, 2026-yil

kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish orqali amalga oshmoqda. Shunday sharoitda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqot ta'lim-tarbiya samaradorligining muhim omiliga aylanmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv asosida qurilgan zamonaviy ta'lim jarayoni muloqotni biryozlana bilim uzatish emas, balki ikki tomonlama, faol, interaktiv hamkorlikka asoslangan jarayon sifatida talqin qiladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi, ular orasida sog'lom psixologik muhitni shakllantiradi, shaxsiy yondashuvni yo'lga qo'yishga zamin yaratadi. Ayniqsa, o'qituvchining o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan birga, pedagogik-psixologik saviyasi, nutq madaniyati, empatiya kabi kommunikativ kompetensiyalari yuqori bo'lishi ham ayni shu jihatdan muhimdir. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayoniga kirib kelar ekan, ularning asosiy vazifalaridan biri aynan muloqotni yangi bosqichga olib chiqishdan iborat. Masalan, onlayn ta'lim platformalari, interaktiv dasturlar, virtual forumlar orqali o'qituvchi-o'quvchi muloqoti nafaqat dars vaqtida, balki undan tashqarida ham uzluksiz davom ettirilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quvchining bilim olish jarayonida o'zini mustaqil va erkin his etishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “ta'limda sifat, bilimda chuqurlik bo'lmasa, biz kutilgan yutuqlarga erisha olmaymiz.” Sifatli ta'limning asosi esa – o'qituvchining pedagogik mahoratida, o'quvchi bilan yuzaga keladigan muloqotning mazmunli va samimiy bo'lishidadir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqotning mazmuni, turlari, samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, zamonaviy usullar orqali uni rivojlantirish yo'llari chuqur yoritiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, ta'lim jarayonida muloqotni samarali yo'lga qo'yish – o'quvchilarda nafaqat bilim, balki shaxsiy fikr, muloqot ko'nikmalari va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy faollik, fuqarolik pozitsiyasi va axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqot bu ikki tomonlama axborot, fikr, histuyg'u va tajriba almashinuvi orqali ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish vositasidir. Bu jarayon oddiygina savol-javob shaklida emas, balki shaxslararo o'zaro hurmat, ishonch va faol ishtirok orqali yuzaga chiqadi. Ta'limda muloqotning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchining darsga qiziqishini orttiradi, uni faollashtiradi, o'z fikrini bildirish, savollar berish va tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi. Bu jarayon orqali o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki muloqot madaniyatini, fikrlash uslubini, ijtimoiy ko'nikmalarni ham egallaydi. O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi — uning nutq madaniyati, intonatsiyasi, tana harakati, muomala uslubi, psixologik tayyorgarligi kabi jihatlar muloqot samaradorligida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, o'quvchining individualligini inobatga olgan holda unga yondashish, uning bilim darajasi, temperamenti, qiziqishi va ehtiyojlaridan kelib chiqib muloqot shaklini tanlash muhim hisoblanadi. Pedagogik muloqot og'zaki, noverbal, yozma, hamda elektron shakllarda kechishi mumkin. Har bir shaklning o'ziga xos imkoniyatlari mavjud: og'zaki muloqot fikrlarni tezkor yetkazish va bahslashish imkonini bersa, noverbal muloqot yordamida o'qituvchi hissiy ta'sir ko'rsatadi; yozma muloqot esa fikrni puxta ifodalashga xizmat qiladi. Elektron kommunikatsiya esa masofaviy ta'lim

20-Yanvar, 2026-yil

sharoitida uzluksiz aloqa o'rnatish imkonini yaratadi. Muloqot samaradorligini oshirishda o'qituvchi tomonidan interaktiv usullarning qo'llanilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Aqliy hujum, munozara, rol o'ynash, klaster, savol-javob kabi usullar o'quvchini faollikka undaydi, uni darsning markaziy ishtirokchisiga aylantiradi. Bu usullar orqali o'quvchi o'z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini tinglash, bahslashish va yakuniy xulosaga kelish malakasini egallaydi. Natijada, muloqot darsdan tashqariga ham o'tadi — o'quvchi mustaqil fikrlovchi va jamiyat bilan erkin muloqotga kirishuvchi shaxs sifatida shakllana boshlaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bu jarayonni yanada qulay va sifatli tashkil etishga xizmat qiladi. Interaktiv doskalar, onlayn dars platformalari, forumlar, chatlar, elektron kundaliklar — bularning barchasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida zamonaviy, tezkor va doimiy aloqa o'rnatishga xizmat qiladi. Masalan, o'qituvchi darsdan so'ng ham o'quvchining savollariga javob berishi, kerakli resurslarni ulashishi, baholash natijalari bo'yicha izoh berishi mumkin. Bu orqali o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishi, mustaqil ishlash ko'nikmasi, va eng muhimi — o'qituvchiga bo'lgan ishonchi ortadi. Muloqotning tarbiyaviy qiymati ham katta. Har bir o'qituvchi-o'quvchi muloqoti o'zida axloqiy, estetik va madaniy ko'rsatkichlarni mujassam etadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqot — bu ta'limning yuragi bo'lib, u faqat bilim berish vositasi emas, balki tarbiyaviy, ijtimoiy, axloqiy va madaniy jarayonning asosiy negizidir. Muloqotni ongli, maqsadli va zamonaviy yondashuv asosida yo'lga qo'ygan taqdirda, ta'lim jarayonining sifati sezilarli darajada ortadi, o'quvchi esa mustaqil, faol, fikrli va mas'uliyatli shaxs sifatida kamol topadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASSISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 20-27.
6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).

20-Yanvar, 2026-yil

7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O ‘SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO ‘LISHINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).

8. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.

